

SAMARQAND SHAHAR EKOTIZIMINING BIOXILMA-XILLIGI.
(UNIVERSITET XIYOBONI MISOLIDA)

K. Sh.Normamatova

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada shahar ekotizmi va undagi bioxilma-xillik haqidagi ma'lumolar tahlil qilingan. Shahar ekotizimi — bu inson tomonidan yaratilgan sun'iy yashash muhiti ekanligi, unda abiotik omillar (masalan, havo, tuproq, suv) va tirik mavjudotlar (odamlar, o'simliklar, hayvonlar) o'zaro aloqada bo'lishi , hamda Universitet xiyoboni bioxilma-xilligi-ekotizmdagi barqarorlikni ta'minlovchi muhim jarayonlardan biri ekanligini adabiyotlar tahlili va kuzatish ma'lumotlari orqali ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Universitet xiyoboni, shahar ekologiyasi, shahar ekotizmi, abiotik omillar, bioxilma-xillik, o'simlik, hayvon, hashorat, tabiiy ekotizim.

Абстрактный.

В статье анализируются данные о городских экосистемах и их биоразнообразии. На основе анализа литературы и данных наблюдений было установлено, что городская экосистема представляет собой искусственную среду обитания, созданную человеком, в которой взаимодействуют абиотические факторы (например, воздух, почва, вода) и живые существа (люди, растения, животные), а биоразнообразие Университетского проспекта является одним из важных процессов, обеспечивающих устойчивость экосистемы.

Keywords: Университетский проспект, городская экология, городской экотизм, абиотические факторы, биоразнообразие, растения, животные, насекомые, природная экосистема.

Abstract.

This article analyzes the data on urban ecosystems and their biodiversity. It is considered through literature analysis and observational data that an urban ecosystem is an artificial living environment created by humans, in which abiotic factors (for example, air, soil, water) and living beings (people, plants, animals) interact, and that the biodiversity of the University Avenue is one of the important processes that ensure the stability of ecosystems.

Keywords: University Avenue, urban ecology, urban ecotism, abiotic factors, biodiversity, plant, animal, insect, natural ecosystem.

Shahar ekologiyasini o'rganish globallashib borayotgan davrda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda dunyo aholisining 50% dan ortig'i shaharlarda yashaydi. Shuningdek, kelgusi 40 yil ichida dunyo aholisining uchdan ikki qismi kengayib borayotgan shahar markazlarida istiqomat taxmin qilinmoqda. Shahar ekotizimi — bu inson tomonidan yaratilgan sun'iy yashash muhiti bo'lib, unda abiotik omillar (masalan, havo, tuproq, suv) va tirik mavjudotlar (odamlar, o'simliklar, hayvonlar) o'zaro aloqada bo'ladigan tizimdir. Tabiiy ekotizimlardan farqli o'laroq, shahar ekotizimlari inson faoliyati natijasida shakllanadi va boshqariladi.

Samarqand shahar ekotizmi o'ziga xos strategik, ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markaz hisoblanadi. Tarixiy shahar ekanligi, turizmni yaxshi rivojlanganligi ham shahar ekotizmiga o'z tasirini ko'rsatadi. Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 4 208,5 ming kishini tashkil etganligi, yil boshidan 90,3 ming kishiga yoki 2,2 foizga ko'payganligini, shuningdek, shahar aholisi soni 1 542,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,7 %), qishloq aholisi soni 2 665,6 ming kishi (63,3 %)ni tashkil etganligi ma'lumotlarda aytib o'tiladi. Aholi

sonining oshishi esa o‘z navbatida ekotizmlarga ko‘rsatiladigan antropogen ta’sirlarning oshishiga olib keladi. Shu asosda ko‘p aholili shaharlarda o‘ziga xos transport va sanoat yo’nalishlari ekologik jihatdan o‘zgarishlarga uchraydi. Buning natijasida ekotizimlarda muvozanatning buzulishi sodir bo’ladi. Ko‘rsatiladigan ta’sirlar nafaqat atrof-muhitga balki, bioxilma-xillikning ham o‘zgarishiga olib keladi. Shahar ekotizmi haqida Universitet xiyoboni misolida ba’zi o’rganish ishlarini olib bordik.

Universitet xiyoboni, Samarqand shahrining markazida joylashgan tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan maskandir. Xiyobon XIX asr oxirlarida barpo etilgan bo‘lib, kengligi 128 metr, uzunligi 1000 metrdan ortiq hisoblanadi. Uchinchi asrda barpo etilgan bu xiyobon noyob daraxtlar bilan o‘ralgan uchta xiyobon va ikkita yo‘lakdan iborat. Dastlab, bu maskan fuqarolarning dam olish joyi sifatida tashkil etilgan. Keyinchalik, Yevropa uslubidagi binolar qurilishi bilan shaharning muhim madaniy markaziga aylangan. Bugungi kunda Universitet xiyoboni Samarqand shahrining ekologik holatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi, chunki u atrof-muhitni toza saqlashga hissa qo‘sadi va shahar aholisi uchun yashil makon yaratadi. Shahar ekotizmi sifatida Universitet hiyoboni bioxilma-xilligi ham fandagi qiziqarli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Samarqandning Universitet xiyoboni (Bulvar) boy va xilma-xil o‘simlik qoplamiga ega bo‘lib, shahar iqlimiga moslashgan daraxtlar, butalar va gulzorlar bilan bezatilgan. U XIX asr oxirlarida barpo etilganidan buyon, turli xil manzarali va ekologik jihatdan foydali o‘simliklar bilan boyitilgan.

Xiyobonning asosiy qismini baland, soyali va uzoq umr ko‘rvuchi daraxtlar tashkil etadi: Chinor – xiyobonning eng qadimiylari va muhim daraxtlaridan biri hisoblanadi. Katta shox-shabbali bo‘lib, yozda kuchli soya beradi va havo namligini saqlashga yordam beradi. Qarag‘ay – doim yashil daraxtlar qatoriga kiradi, changni ushslash va havo tozalashda muhim rol o‘ynaydi. Terak – tez o‘sadigan va changga chidamli daraxt turi bo‘lib, xiyobonda ko‘p uchraydi. Akatsiya – yorqin yashil barglari va bahorda yoqimli ifor tarqatadigan gullari bilan ajralib turadi. Aylantus – o‘sishi tez,

issiq iqlimga chidamli daraxt bo‘lib, shahar landshaftini obodonlashtirishda keng qo‘llaniladi.Jo‘ka – yo‘lak bo‘ylab ekilgan, mayda xushbo‘y gullari va shifobaxsh xususiyatlari bilan mashhur daraxt.Xiyobonda turli xil butalar ekilgan bo‘lib, ular hududning estetik ko‘rinishini oshiradi va ekologik muhitni yaxshilaydi:Jiyda – mayda kumushrang bargli, xushbo‘y gullari bor o‘simlik.Bulutgul – bahor va yoz oylarida mayda oq yoki pushti gullar bilan bezaladigan dekorativ buta.Zirk – kichik qizg‘ish mevalari bilan ajralib turuvchi, chiroyli manzarali buta.Atingul butalari – turli ranglardagi atirgullar xiyobonni bezatadi va unga nafis ko‘rinish beradi.Lola – bahorda ochiladigan, xilma-xil rangdagi gullar xiyobonga alohida chiroy bag‘ishlaydi.Nargis – erta bahorda ochilib, mayin ifor tarqatadi.Shirinbosh – yorqin qizil va binafsha gullari bilan ajralib turadi.Xrizantema – kuz oylarida ochilib, xiyobonni rang-barang gullar bilan qoplaydi.Petuniya – yo‘lak bo‘ylab ekilib, xiyobon hududini yanada go‘zal qiladi.

Universitet xiyoboni (Bulvar) nafaqat yashil hudud, balki turli xil jonivorlarning yashash joyi ham hisoblanadi. Ushbu xiyobonda uchraydigan hayvonlar asosan shahar landshaftiga moslashgan mayda sutemizuvchilar, qushlar va hasharotlardan iborat.

Tipratikanlar – asosan kechqurun faol bo‘lib, mayda hasharotlar va mevalar bilan oziqlanadi.Mayda kemiruvchilar – daraxtzor va butalar orasida yashaydi.Yovvoyi mushuklar – odamlar tomonidan tashlab ketilgan mushuklar yoki shahar muhitiga moslashgan yovvoyi mushuklar xiyobonda uchraydi.Universitet xiyobonida turli xil qushlar yashaydi, ularning aksariyati doimiy yoki mavsumiy migratsiya qiluvchi turlardir.Mayna - samarqand shahar hududida juda keng tarqalgan qush turi.Sariq bilakli kaptar – xiyobonda eng ko‘p uchraydigan qushlardan biri.Chug‘urchiq – daraxtlar orasida uya quradigan kichik qush.Qarg‘a – oziq-ovqat izlab xiyobon atrofida uchraydi.To‘rg‘ay – asosan ochiq maydonlar va maysazorlar yaqinida yashaydi.Bulbul – bahor va yoz oylarida yoqimli sayrashi bilan tanilgan.Boyqush – xiyobonning sokin hududlarida kechasi faol bo‘ladigan qush

turi.O'rgimchak kaltakesak – daraxt taglari va toshlar orasida yashaydi.Suv qurbaqalari– xiyobonda favvoralar yoki nam joylarda uchrashi mumkin.Asalari– gulchang yig‘ish va changlatish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.Qandalalar va ari turlari - ayrim daraxtlar va gullarning atrofida uchrab turadi.Kapalaklar – mavsumga qarab xilma-xil rangdagi kapalaklar uchraydi (masalan, Pavlinoglazka kapalagi.Chigirtkalar– maysazorlarda uchraydi, ayniqsa yoz oylarida.O'rgimchaklar – daraxt va butalar orasida to‘r hosil qilib, kichik hasharotlar bilan oziqlanadi.Tuproq qo‘ng‘izlari – tuproq yuzasida harakatlanib, organik moddalarni parchalashda muhim rol o‘ynaydi.Qurtlar va chumolilar – o‘simlik qoldiqlarini parchalaydi va tuproq unumdorligini oshirishga yordam beradi. Bu organizmlar Universitet xiyoboni (Bulvar) bioxilma-xilligini ko’rsatadi. Bundan tashqari olib borilgan izlanishlar va tadqiqotlar orqali turlar sonini ham o’zganib chiqdik. Chinorlarning 600 turi, kustarniklarning 190 turi,archalarning 390 turi , kashtanlarning 160 turi,akatsiyalarning 50 dan ortiq turlari, aylant, qayrag’och, safora, yong’oq kabi o’simliklarning turlar sonini ham o’rgandik.

Samarqand shahrida avtomobil yo‘llari, shahar ko‘chalari, ko‘priklar va yo‘l o‘tkazgichlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash bo‘yicha amalgalashuvlari qurish, shahardagi ishlarni yanada jadallashtirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 avgustdagagi 483-sod qarorining ijrosini ta’mirlash maqsadida: Universitet xiyoboni (bulvar) hududini to‘la ta’mirlash obyektida "BAYTQO‘RG‘ON USMANOVA NARGIZA" FX tomonidan ko‘kalamzorlashtirish ishlari bajarilgan. Bu faoliyat orqali 16000 dan ortiq o’simlik turlari bioxilma-xillikni yaxshilash uchun ekilgan.

Shahar ekotizimlari o’rganilishi dolzarb ahamiyatga ega bo’lgan mavzu hisoblanadi. Ekologiya fanining asosiy o’rganish obyekti, hayotdagi barqaror muvozanatni ta’minlab beruvchi bu ekotizimlar tirik organizmlar uchun yashash muhitidir. Shu bilan birgalikda bioxilma-xillik monitoringini olib borish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yashil hududlarni saqlab qolish va ekologik

barqarorlikni ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, bunday tizimlarni doimiy kuzatish, tahlil qilish va ekologik holatini baholab borish zarur.

1. <https://samstat.uz/uz/>

2. <https://www.samdu.uz/uz>

3. https://en.wikipedia.org/wiki/Urban_ecology

4. Niemelä, Jari (1999). ["Ekologiya va shaharsozlik"](#). [Bioxilma-xillik va Tabiatni muhofaza](#) qilish. 8 (1): 119–131. doi:[10.1023](https://doi.org/10.1023) / a: 1008817325994. ISSN 0960-3115. S2CID [36775732](https://doi.org/10.1023/A:1008817325994).